

Hozirgi kunda biz pedagoglar oldida yurtimiz uchun kerakli va jonkuyar kadrlarni tayyorlashdek ulkan vazifa turibdi. Buning uchun esa biz anchayin ter to'kishimizga to'g'ri keladi. Chunki men bugungi kun yoshlarini kuzatar ekanman ularning qiziqishlari va maqsadlarini eshitsam ba'zida yig'lagim ba'zida kulgum keladi. Nima uchun yig'layman chunki shunaqa yoshlarimiz bor fikrlash doirasi keng o'zining mustaqil fikriga ega va hayotdagi maqsadlarini aniqlashtirib olgan biroq tangani ikkinchi tomoni b'olganidek biz bilamizki yana shunday yoshlarimiz borki ularda na maqsad bor na orzu bor va na fikrlash bularni ko'rganimda achinib yig'lagim keladi. Va eng quvonarlisi yoshlarimiz orasida uchinchi toifaga kiruvchi juda ilg'or yoshlarimiz ham borligi bugungi kunda, uchinchi toifa yoshlari o'ziga ishongan, liderlik qobiliyatiga ega ham o'zgarlar fikrini eshitadi va o'zini ustida izlanadi ham boshqalarni ortidan ergashtira oladi men shakshubhasiz bunaqa yoshlarni senior youths deb takidlagan bo'lar edim.

Taklifim shundan iboratki.

1. Maktab ta'limi faoliyatini tubdan o'zgartirish kerak chunki maktabda eski metod asosida ta'lim berilib kelyapti. Bu metod avval yodlat keyin so'ra. Buni bir muammo Deb oladigan bo'lsak unga yechim bolalarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o'rgatish uslubidan foydalaning kerak.

2. Har bir maktabda motivatsion klublar tashkil qilish. Motivatsiya bugungi kunda eng to'g'ri yo'l desam adashmayman. Motivatsion klublar ularga alohida rahbar pedagoglar tayinlanishi kerak.

3. Har bir bola o'zi qiziqqan sohaga yo'naltirilishi kerak. Yani maxsus gimnazon guruhlar tashkil qilinishi kerak Kim qaysi sohaga qiziqsa o'sha soha uchun kerakli nazariy bilimlar beriladigan.

4. Ota-ona va maktab hamkorligi bu judayam muhim bunda o'qituvchi sinf rahbarlar va deriktor shuningdek ota-ona o'rtasida qandaydir bir qonun kuchiga ega bo'lgan hujjat tashkil qilinishi unda o'qituvchi uchun talablar alohida ota-ona uchun alohida talablar yozilgan bo'lishi kerak. Shunda ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi muammolar bo'lmaydi.

5. Bu so'ngisi tepada ta'kidlab o'tganim uchinchi toifadagi bolalarni izlab topish va ularga yordam berish.